

Ma'lumot

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi institutning asosiy vazifalari:

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi (keyingi o'rinlarda - Favqulodda vaziyatlarda davlat tizimi deb ataladi) respublika va mahalliy boshqaruv organlari, mansabdor shaxslari, mutaxassis va safarbarlik hodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda fuqaro muhofazasi kuchlarini aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasi, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligi, safarbarlik ishlari, shuningdek kichik xajmli kemalar boshqaruvchilarini o'qitish kompleks tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish;

hududiy aholi hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash markazlariga (keyingi o'rinlarda - markazlar) aholini tayyorlash, tinglovchilarni aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligi, shuningdek aholi hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha malakasini oshirish va qayta tayyorlashga o'quv-uslubiy rahbarlik qilish;

institut va markazlar, boshqa ta'lim muassasalarining aholini favqulodda vaziyatdan ogohlantirish va harakat qilishga tayyorlash, shuningdek yong'in xavfsizligi sohasi bo'yicha faoliyatining o'quv-moddiy bazasini takomillashtirish va (o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ko'rgazmali tarqatma materiallar, buklet, plakat, videorolik, multiplikasion filmlar, xujjatli filmlar va boshqa) ishlab chiqish;

umumta'lim, o'rta maxsus, oliy ta'lim o'quv muassasalarida aholi hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash asoslari bo'yicha o'quvchilarga o'qitish jarayonini tashkil etish va takomillashtirishda o'quv-uslubiy yordam ko'rsatish.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi institutining funksiyalari:

a) Favqulodda vaziyatlarda davlat tizimi respublika va mahalliy boshqaruv organlari, mansabdor shaxslari, mutaxassis va safarbarlik xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda fuqaro muhofazasi kuchlarini, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasi, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligi, safarbarlik ishlari, shuningdek kichik xajmli kemalar boshqaruvchilarini o'qitish kompleks tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish sohasida:

tinglovchilar toifalari bo'yicha jamlash rejasini ishlab chiqish;

joylardagi davlat hokimiyat organlari, Favqulodda vaziyatlarda davlat tizimi respublika va hududiy boshqaruv organlari rahbar xodimlari, mutaxassis va safarbarlik xodimlarini tayyorlash o'quv dasturlari, shuningdek o'quv rejalari va malaka talablarini ishlab chiqish;

nazariy va amaliy, shuningdek ko'chma mashg'ulotlarni o'tkazish, oraliq va yakuniy nazoratlarni qabul qilishni tashkil etish.

b) hududiy aholi hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash markazlariga (keyingi o'rinlarda - markazlar) aholini tayyorlash, tinglovchilarni aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligi, shuningdek aholi hayot xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha malakasini oshirish va qayta tayyorlashga o'quv-uslubiy rahbarlik qilish sohasida:

tinglovchilarni toifalari bo'yicha jamlash rejasini ishlab chiqishda uslubiy yordam ko'rsatish;

umumta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarining o'qituvchilari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, tashkilot, idora va muassasalar, Favqulodda vaziyatlarda davlat tizimi mahalliy boshqaruv organlari rahbar hodimlari va mutaxassislarini tayyorlash o'quv dasturlari, shuningdek o'quv rejalari va malaka talablarini ishlab chiqish;

hududiy markazlarga o'quv xujjatlarni rasmiylashtirish va ishlab chiqish, o'quv-moddiy bazani takomillashtirish va aholi hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash sohasidagi mashg'ulotlar sifati oshirilishini o'rganish va uslubiy yordam ko'rsatish.

v) Institut va markazlar, boshqa ta'lim muassasalarining aholini FVdan ogohlantirish va harakat qilishga tayyorlash, shuningdek yong'in xavfsizligi sohasi bo'yicha faoliyatining o'quv-moddiy bazasini takomillashtirish va (o'quv-uslubiy qo'llanmalar ko'rgazmali tarqatma materiallar, buklet, plakat, videorolik, multiplikasion filmlar, hujjatli filmlar va boshqa)ishlab chiqish sohasida:

o'quv qo'llanmalari, tarqatma materiallar (bukletlar, plakatlar va x.k.), videofilmlar, animasion va xujjatli filmlar tayyorlanishi bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishni hisobga olgan holda, favqulodda vaziyatlarning oldini olish muammolarini o'rganadi va tahlil qilish;

ushbu yo'nalishda xorijiy tajribani o'rganadi va respublikada amalga tadbiriq etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

o'quv-uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallar (bukletlar, plakatlar va boshqalar), videoroliklar, animasion va xujjatli filmlarning loyihalarini ishlab chiqish va Ilmiy kengashda ko'rib chiqib, tasdiqlashni

tashkil qilish.

g) umumta'lim, o'rta maxsus, oliy ta'lim o'quv muassasalarida aholi hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash asoslari bo'yicha o'quvchilarga o'qitish jarayonini tashkil etish va takomillashtirishda o'quv-uslubiy yordam ko'rsatish sohasida:

umumta'lim, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlariga aholi hayot faoliyati xavfsizligi asoslarini o'qitish jarayonini o'rganish va tahlil qilish;

umumta'lim, o'rta maxsus, shuningdek oliy ta'lim o'quv muassasalarida aholi hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash asoslari bo'yicha o'quvchilarga o'qitish jarayonini tashkil etish bo'yicha tegishli o'quv xujjatlarini ishlab chiqish va rasmiylashtirish, mavzuga oid mashg'ulotlarni o'tkazish sifatini oshirish va tegishli o'quv moddiy bazani takomillashtirishda o'quv-uslubiy yordam ko'rsatish.